

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MODAL FE'LLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Farg'ona Davlat Universiteti
f.f.f.d., (PhD), dotsent
Axrorova Ro'zixon Usmonovna
axrorova.prof@gmail.com

Farg'ona Davlat Universiteti,
Lingvistika, ingliz tili 2-kurs magistranti
Raxmatullayeva Munajat Nozimjon qizi
raxmatullayevamunajat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan modallik tushunchasi batafsil yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida modal fe'llarning qo'llanilishida lingvokognitiv xususiyat muhokama qilinadi. Modallikning sof va vazifadosh ekanligi, modal so'zlarning har ikki tilde ham qo'llanilishi va modal fe'llarning o'ziga xos xususiyati misollar asosida yoritib berilgan. Nazariyalar turli asarlardan va lug'atlardan olingan namunalar orqali yoritiladi va izohlanadi.

Kalit so'zlar: Modallik, modal ma'no, ko'makchi fe'l, lingvokognitiv xususiyat, gap tartibi, yordamchi so'zlar, mustaqil so'zlar.

LINGUOCOGNITIVE CHARACTERISTICS OF MODAL VERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract: This article describes the concept of modality in detail, which is very important in linguistics. Linguistic features of the use of modal verbs in English and Uzbek languages are also discussed. The fact that modality is pure and task-oriented, the use of modal words in both languages, and the peculiarity of modal verbs are explained

on the basis of examples. Theories are illustrated and explained through examples from various works and dictionaries.

Key words: Modality, modal meaning, auxiliary verb, linguocognitive feature, sentence order, auxiliary words, independent words

O'zbek va ingliz tillarida modal fe'llarning o'ziga xususiyatlari butunlay farqli emas. Aslida, ularning grammatik kategoriyasi ham anchagina farq qiladi degan til o'rganuvchilari ham biroz adashadi.

Shunchaki, ulardagi asosiy farq: ingliz tilida modallik ko'pincha fe'llarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham modal fe'llar deyiladi.

I must go to school in order to have a brighter future.

Men kelajagim porloq bo'lishi uchun maktabga borishim shart.

O'zbek tilida esa modal ma'no deyiladi, chunki o'zbek tilida modallik juda ko'p so'z turkumlarida namoyon bo'lishi mumkin. Ular asosan vazifadosh bo'lib, kirish so'z vazifasini bajaradi.

Misol uchun, *O'z-o'zidan, masala hal.*

Shuningdek, o'zbek tilida modallik so'zlardan tashqari ko'makchi fe'llar yordamida ham ifodalanadi. Ular, asosan, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari(boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi(tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq singari ko'makchi fe'llar kiradi.

Masalan: - *Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi.* (Oybek).

O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham modallik boshqa so'z turkumlarida ham mavjud. Ular ham so'z, ham fe'l shaklida uchraydi. Modal so'zlar alohida so'zlar sifatida o'rganilmaydi. Ingliz tilidagi modal so'zlar ham o'zbek tilidagi singari aytilayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini bildiradi. Ingliz tilidagi modal so'zlarning ba'zilari conjunction(bog'lovchi) mavzusida o'rganiladi.

Masalan: well-xo'sh.

- *Well, shall we go to walk after our classes today?*

Bu yerda well so'zi, asosan, ikkilanish ma'soni beradi.

Ingliz tilidagi modal so'zlar, asosan, gapni boshlab beruvchi element deb qaraladi.

Ingliz tilida quyidagi modal so'zlar mavjud:

- Of course-albatta, maybe-ehtimol, for instance-chunonchi, well-yaxshi, alas-afsus kabilar.

Of course, you are the smartest pupil in our class.

Maybe, he will not come today.

I like his good habits. For example (for instance): he is very generous. He is always ready to lend money.

O'zbek tilida esa yuqorida aytib o'tganimizdek, modal so'zlar kategoriyalarga bo'lib o'rganiladi.

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

- 1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat* (Bu modal 'chin voqelik' ma'nosini anglatadigan arabcha hahitsat oti (ARS, 185) oldidan 'holat' ma'nosini ifodadaydigan dar old ko'makchisini qo'shib hosil qilingan; 'haqiqatan', 'chindan ham' ma'nosini ifodadaydi), *haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arxaik so'z); Darhaqiqat, Darhaqiqat, Vali aka o'g'liga bir otagina bo'lib qolmay, uning eng yaqin hamdardi ham edi. M. Ismoiliy, „Farg'ona tong otguncha“.*
- 2) fikrning qat'iyliги ta'kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so'zsiz Shubhasiz, u haq. Reja, shubhasiz, bajariladi.* (Gazetadan)
- 3) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o'z-o'zidan. Tabiiy, Xushro'yning felini yaxshi 6wi-gan ota-ona uning ra'yini olmasdan turib, bir ish qilmoqdan qo'rqardilar. A. Qodiriy, „O'tgan kunlar“.*
- 5) fikrning chinligi eslatiladi: *to'g'ri, xoynaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe* (Bu modal 'yuz berayotgan', 'haqiqiy' kabi ma'noni anglatadigan arabcha vohe sifatdoshi oldiga 'payt' ma'nosini ifodadaydigan tojikcha dar old ko'makchisini qo'shib hosil qilingan), *rostdan. Darvoqe kishloq hayotida katta o'zgarishlar qilishga payt kelmadimi? P. Tursun, „O'qituvchi“.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal soʻzlar:

- 1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chogʻi*;
Chamasi, Azizbek oson-lik bilan jon beradigan koʻrinmaydir. [A. Qodiriy](#), „*Oʻtgan kunlar*“.
- 2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki*;
- 3) fikrning tasmolli ekanini bildiradi: *aftidan*;
- 4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay*.

3. Fikrning tartibi: *avvalo, [avvalambor](#), [birinchidan](#), ikkinchidan*.

1. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan*.

-*Avvalo, mening uyim yoʻq. Undan keyin meni muborakbod qilib turgan tanishlarim ham yoʻq, — dedi Anvar qoʻl siltab. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.*

2. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan*

3. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, [xullas kalom](#)*

4. Achinish: *afsus, attang, esiz*.

1. Achinish: *afsus, attang, esiz*.

Bekor ketdi, [afsus](#), shuncha urinish. [A. Sher](#), „Qadimgi kuy“

2. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim*.

3. Quvonch: *xayriyat*.

4. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yoʻq*.

Oʻzbek tilida, modal soʻzlarning koʻpchiligi mustaqil soʻzlardan oʻsib chiqqan.

- Masalan:
- 1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat*;
- 2) sifatdan: *yaxshi(ki), toʻgʻri, soʻzsiz, shubhasiz, tabiiy*;
- 3) ravishdan: *albatta*;
- 4) soʻz birikmasidan: *har qalay, har holda*;
- 5) gapning modal soʻzga aylanishi: *holbuki (Hol buki)*;
- 6) soʻz tushirish natijasida hosil boʻlgan: *oʻz-oʻzidan (aniq soʻzi tushib qoladi)*.

Modal soʻzlar sof va vazifadosh modal soʻzlarga boʻlinadi.

- *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, [taxminan](#)* soʻzlari sof modal soʻzlar hisoblansa, modal maʼnoda ham

qo`llanadigan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi so`zlar vazifadosh modal so`zlar hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lumki, ingliz va o'zbek tilidagi modal fe'llar bir-biriga ma'lum bir jabhalarda o'xshab ketishadi, va albatta, farqli jihatlari ham yo'q emas. Ulardagi lingvokognitivlikni esa o'sha millatning grammatikasini yaxshilab o'rganish orqali tushunish mumkin.

Can I have a bottle of pepsi?

*Can you open this **can** of tomatoes?*

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi turlichadir. Birinchi gapda u haqiqiy modal ma'noda, imkoniyat ma'nosida kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda undagi ma'no o'zgarib, omonim so'z vazifasida "konserva quti" degan ma'noda kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lumki, ingliz va o'zbek tilidagi modal fe'llar bir-biriga ma'lum bir jabhalarda o'xshab ketishadi, va albatta, farqli jihatlari ham yo'q emas. Ulardagi lingvokognitivlikni esa o'sha millatning grammatikasini yaxshilab o'rganish orqali tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N., Nurmonov A., "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" Toshkent. 1995.
2. Ona tili umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent. Tasvir. 2014.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Universitet. 2006.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent. Ma'naviyat. 2017.
5. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Universitet. 2009.
6. [www. google. com.](http://www.google.com), file:///C:/Users/admin/Downloads/ingliz-tilida-modal-fe-llarining-o-ziga-xos-xususiyati

7. Usmonov O'. U., Ashurov Sh. S., Ingliz tili nazariy grammatikasi. Sam.: - 2007
8. Yakubov J. A., Modallik kategoriyasining mant va tilda ifodalanish xususiyatlari. A vtoreferat. Toshkent. 2006.